Sinkorp ginetsiy yana evolyutsiya qilar ekan, yopiq urug'li o'simliklarning har xil evolutsiya qatorlarida ikkita ko'p uyali gul tuguni bir xonali gul tuguniga aylangan: ichki tomonga o'ralib qo'shilib ketgan burglar bir-biridan ajralib yozilgan, ammo bir-biriga cheti bilan qo'shilganicha qolgan: natijada bir-biriga faqat chetlari bilan birikkan bir qancha meva barglari bir uyali gul tuguni hosil bo'lgan (masalan, gunafsharlar, qaroqatlar, krijovnik, taslimonlar, gozaqutgullar, shumg'iyasimonlar, deyarli hamma arxisgullilar va boshqalarda). Bu xildagi sinokarp ginetsiy porokarp deb ataladi. Bu holda plasentalar gul tuguni ichki devorlaridan uzunasiga joy oladi (meva bargchalarining uchi qo'shilgan joydan) va devor yoki parietal plasentalar deb ataladi. Parietal plasentali bir qancha o'simliklarda plasentalar tugun bo'shlig'iga judda bo'rtib chiqadi va soxta to'siqqa o'xshab qoladi (qovoqgullilar ko'knorgullilar va boshqalarda). Tugundagi parakarp ginetseyda ham tugun ichki devorining o'simtalaridan soxta to'siq yuzaga kela oladi, masalan, butgullilarda parietal plasentalar meva bargchalari chetlarining birikkan joyini ko'rsatadi. Parakarp ginetsey tugunidagi urug'kurtaklar soni reduksiya natijasida ba'zi oilalarda bittagacha kamayadi (murakkabgullilar, boshqali o'simliklar va boshqalarda).

Bitta meva bargchadan hosil bo'lgan ko'p urug'kurtakli bir uyali gultugunlarida ham parietal plasentalar bo'ladi (masalan, dukaklilar, peongullilar, zimovni va boshqalarda)

Kamdan-kam ba'zi evolutsiya qatorlarida sinkarp ginetseydan lizikarp deyiladigan ginetsey ham paydo bo'lgan. Bu yerda meva bargchalarining ichkariga qarab o'ralib, ontogenezning eng ilk devorlarida bir-biriga qo'shilib ketgan chetlari kelgusida qo'shilmay qolib, tugunda to'siq hosil qilmagan, shuning uchun ham gul tuguni bir uyali bo'lib qolgan. Plamenta gul tuguni

tagidan go'yo gul o'rnidan o'sib chiqqan ustundeb bo'lib ko'tariladi. Haqiqatda esa bu yerda ham plasenta meva bargchalari chetlarining birikishidan hosil bo'ladi. Bazi o'simliklarda gul o'rnigugunining markaziga, meva barglari uchlarining orasiga o'sib chiqsa ham ajab emas, lekin shunda ham uning chetki qismlari meva bargchalari to'qimalari bilan qoplangan bo'ladi. Bunday plasenta o'qli, soxta o'qli, erkin markazli, ustinsimon plasenta deb ataladi. Navro'zgullilar, ba'zi chinnigullilar, torongullilar va ba'zi boshqa o'simliklarda shunday plansenta bor (torongullilarda urug'kurtaklar soni bittagacha qolmaydi).

Gul tugunidagi urug'kurtaklarning miqdori har xil o'simliklarda bittadan boshlab bir necha minggacha boradi.

Bitta meva bargchadan uzaga keladigan va bir uyali tugunining har birida urug'kurtaklari ko'p bo'lgan apokarp ginetsey hammadan soddasi deb hisoblanadi. Evolutsiya prosesiga undagi meva bargchalarining soni 3-2 tagacha va nihoyat, bittagacha kamaygan (gulida onaligi ko'p ayitovongullilarda, qarg'atuyoqlar, gulida onaligi bitta olxo'ri, olcha va boshqalarda). Ikkinchi tomondan, evolutsiya prosesiga apokarp ginetseydan sinkarp ginetsey, shu ginetseydan esa porakarp va lizakarp ginetseylar kelib chiqqan. Shu senokarp (birikkan bargli) ginetseylarda ham evolutsiya, aosan, yana meva bargchalari sonining ikkitaga, urug'kurtaklar sonining bittaga kamayishi tomoniga qarab brogan. Masalan, arxisgullilar tugunidagi bir talay urug'kurtaklar hajmining kichrayishi va ajdodlarida oldin kamroq bo'lgan urug'kurtaklarning ko'payishi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa ajab emas. Ginetsey va plansentalar tiplari evolutsiyasini o'rganishda sovet botanigi A.L.Taxtadjan ko'p ishlar qildi.

Gul tuguni gulning boshqa qismlarida nisbattan olgan holatiga qarib, ustki, pastki va o'rta bo'lishi mumkin. Bo'rtgan, tassi yoki botiq gul o'rnida erkin joylashgan tugun deyiladi, uning devorlari faqat meva bargchalaridan

hosil bo'ladi. Agar shunday tugun gul o'rnining uchiga joylashgan bo'lib, gulning boshqa a'zolari uning tagida tursa, bunday gul tugundan pastki gul deb ataladi. Ustki tugunning ikkinchi xili ham bor, bunda tugun gul o'rnining ko'zachaga o'xshash botiq tubida erkin joylashgan bo'ladi, (masalan, na'matak, olcha, olxo'ri, shaftoli, o'rik, tangagul va boshqalar) Ko'zachaga o'xshaydigan shu botiq yo masalan na'matakda kabi bitta botiq gul o'rnidan yuzaga kelgan yoki pastki qismi botiq gul o'rnidan, yuqori qismi esa gulqo'rg'on barglari va otaliklarning bir-biriga qo'shilib ketgan asosidan hosil bo'lgan. Bunday gul tugun ko'pincha o'rta tugun deb ataladi. Bu holda ko'zachaning yuqori chetiga birikkan boshqa gul a'zolari gul tuguni uchining davomidan(lekin uning ustida emas) joy oladi va gul o'rtatuguli gul deb ataladi.

Uchida gulqo'rg'on joylashgan tugun pastki tugun deb ataladfi, bunda gulqo'rg'on oldingi holidagidek tuguncha qo'shilmay qolgan gul o'rni uchidan chiqmasdan, tugun uchidan chiqadi. Bunday gul tugun usti gul deb ataladi.

O'rta gul tuguni o'zining pastki qismi bilangina gul o'rniga yoki gulqo'rg'on va otaliklarda qo'shilganbo'lsa yuqori qismi esa erkin holda qoladi, bu holda gulqo'rg'on gul tugunining o'rtasidan chiqqan bo'ladi va gul o'rta gul deb ataladi (marjon daraxti, uchqat, toshyorrarlarda).

Ustki va pastki gul tugunlari judda ko'p uchrasa, o'rta tugunlar kamdan-kam o'simliklarda uchraydi. Gul tugunlarining tiplari doimiy bo'lib, nasldan-naslga o'tadi va sistematikada judda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Gul tugunining yuqorida ko'rsatilgan mana shu barcha tiplari o'rtasida oraliq shakllar ham bor.Solishtirma marfoologiya nuqtai nazaidan qaraganda, pastki va o'rta tugunlar ustki tugunga raso gomologik bo'lolmaydi, chunki

ularning hosil bo'lishida meva bargchalarining tashqari gul o'rni yoki gulqo'rg'onning barglari va otaliklar ishtirok etadi.

Filogenetik jihatdan ustki gul tuguni pastki gul tugunidan qadimgiroqdir. Pastki gul tuguni yuqorida ko'rsatilganidek, turli yo'llar bilan kelib chiqishi mumkin. Yopiq urug'li o'simliklarning evolutsiyasi davomida pastki tugun ularning har xil filogenetik qatorlarida necha martalab va mustaqqil ravishda vujudga kelgan

1.5. Urug'kurtak

Ochiq urug'lilar urug'kurtagi qanday qismlardan tuzilgan bo'lsa, yopiq urug'li o'simliklarning urug'kurtagi yoki megasporangiysi ham umuman o'sha qismlardan: urug'kurtakni urug' yo'lga biriktiriladigan urug'kurtak bandi, nutsellus (yoki yadro) va (bitta tojibarglari birlashgan o'simliklarning deyarli hammasida) yoki ikkita qoplagich to'qima-integumentlar (bir pallali va tojibarglari birlashmagan o'simliklar)ning deyarli hammasida tuzilgan; integumentlarning yuqori tomoni ochiq qoladi-chang yo'li (mikrolim) deb shuni aytiladi. Juda kamdan-kam o'simliklardagina urug'kurtaklar qoplag'ichsiz bo'ladi (santalimonlar, balanoforalilar, remnegullilar va boshqalar).

Tojibarglari birlashmagan o'simliklar bilan aksariyat bir pallali o'simliklarda nutsellus yaxshi taraqqiy etgan va odatda, bir necha qator hujayralardan tuzilgan bo'lib, uzoq saqlanadi (krassinutselyalik urug'kurtaklar). Tojibarglari birlashgan o'simliklarda nutsellus, odatda kuchsiz taraqqiy etgan va kam miqdordagi hujayralardan iborat bo'lib, ichida embirion xaltachasi rivojlanar ekan, shu xaltacha nutsellusni siqib chiqaradi va embirionning oziqlanishiga sarf bo'lib, tamoman, deyarli yo'qolib ketadi (tenuinusilyat urug'kurtaklar). Nutsellusning birinchi tipi soda deb hisoblansa, uning reduksiyalanishi esa so'nggi evolyutsiyalanishidan yuzaga kelgan.

Urug'kurtakning urug' bandiga birikkan qindek deb atalsa (u urug'larda yaxshi ko'rinadi), nutsellusning qoplag'ichlar o'sib chiqadigan pastki tomoni xalatsa deb ataladi.

Urug'kurtak dermatogen bilan periblemadan bo'rtib chiqadi; keyinroq uning tagi-xalatsadan qoplag'ichlar yuzaga keladi, ular ko'p o'simliklarda bazipetal ravishda ya'ni ichkisi tashqisiga nisbatan oldinroq hosil bo'ladi.

Urug' bandini sporangiy bandi bilan, nutsellusni megasporangiy devoir bilan gomolog deyish mumkin. Ba'zi olimlar qoplag'ichlar (integumentlar)ni qirqquloqlarning qoplag'ichi (induziumi) bilan gomolog deb hisoblaydi. Ko'pchilik olimlar esa integumentlarni urug'kurtakning o'zidan hosil bo'lgan tuzilma deb, qirqquloqlarning qoplag'ichini esa sporofill o'simtasi deb hisoblaydi.

Ochiq urug'li o'simliklar ko'zdan kechirilayotganida aytib o'tilganidek, urug'kurtaklar qoplag'ichi reduksiyalanib, hosilsiz bo'lib qolgan va nutsellusni vujudga keltirgan markaziy megasporangiy qoldiqlaridan iborat bo'lishi ham mumkin. Qoplag'ichlar shu tariqa kelib chiqqan deb hisoblanar ekan, aslida, nutsellusgina megasporangiyga, butun urug'kurtakni sorusga gomolog, to'g'rirog'I, megasporangiyalar sinangiysiga gomologdir demasdan, o'sha megasporangiyalarning faqat bittasida megaspore bor, qolganlari esa reduksiyalanib, qoplag'ichga (yoki ikkita qoplag'ichga) aylangan deyish kerak.

Kamdan-kam o'simliklarda (torongullilar, qichitqisimonlar, qalampirsimonlar va boshqalarda) urug'kurtak rivojlanar ekan, dastlabki vaziyatini saqlab qoladi, natijada nutsellus urug' bandining bevosita davomi bo'lib qoladi, to'g'ri yoki atrop urug'kurtak deb shuni aytiladi. Ko'p o'simliklarda esa, urug'kurtaklar taraqqiy etar ekan, baravar o'smasligi natijasida quyoshning tik tushgan kuchli nuri, quruq havo va quruq tuproq, uglevodlar (asosan, shakarlar)ning o'simlikda to'planishi gullashni tezlashtiradi. Gulga kirish uchun muayyan ichki va tashqi sharoit kompleksi

bo'lishi zarur, albatta. O'sha sharoitni o'zlashtirishi va bir-birini almashtirish yo'li bilan o'simlik hayotidagi ana shu eng muhim prosessga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatsa bo'ladi.

Bir yillik o'simliklar (zig'ir, nasha, qora bug'doy, bug'doy va boshqa ko'pgina o'simliklar) bilan ikki yillik o'simliklar (karam, lavlagi, sabzi va boshqalar) umrida bir marta gullaydi va meva berganidan keyin qurib ketadi; bunday o'simliklar monokorpik o'simliklar deb ataladi. Ko'p yillik o'simliklar, odatda, umrida necha martalab gullaydi; bunday o'simliklar pokolarpik o'simliklar daeb ataladi. Kamdan-kam ko'p yillik o'simliklarga monokarpikdir, ya'ni ular, birinchi bor gullab meva berganidan keyin qurib ketadi; masalan, ba'zi agavalar, bir xil bambuklar, kamdan-kam xurmo daraxtlari (masalan, Arenda saccharifera Corupha, Metraxulan). O'rta Osiyoda o'sadigan ba'zi ferullar (masalan, Ferula assa-foetida) shular jumlasidandir.

Gulkurtaklar (g'unchalar) gullash yo'liga yoki ko'pchilik daraxtlarimizda bo'lganidek gullash yo'lidan oldingi yilda vujudga keladi va faqat bir barg chiqaradigan novda beradigan kurtaklardan shakli va kattaligi bilan farq qiladi. (meva daraxtlarida ular, odatda meva kurtaklari deb ataladi.) Gul g'unchalari tashkil topar ekan, kosachabarglari va tojibarglari pastki (tashqi) yuzasi bilan tezroq o'sadi, shunga ko'ra g'uncha yopiq holatda qoladi. Gullar kosachabarglari bilan tojibarglari pastki qismlarining yuqori (ichki) tomoni bilan tezroq o'sishi natijasida ochiladi; ayni vaqtda ularga ko'p suv keladi, bu g'unchada bujmayib, o'ralib yotgan qismlarning yozilishga sabab bo'ladi.

Ba'zi tropik o'simliklar, masalan, kakao, kakos, palma va boshqalar bir gulaga kirgandan keyin umr bo'yi to'xtovsiz gullayveradi. O'simliklarning juda ko'pchiligi esa ma'lum davrlarda changlar suv bilan (gidrofiliya) va hatto tasodifan shilliq qurtlar bilan ham tarqaladi.

1.6. Gullash

Gullarning hosil bo'lishi uchun o'simlikda oziq moddalarni birmuncha to'plangan bo'lishi kerak: shuning uchun hayotining birinchi yo'li gullagandan o'simliklar ekiladigan so'ng kamida 20-30 kun o'tgandan keyin yoki, ko'pincha, vegetatsiya davrining o'rtalarida gullaydi. Ko'p o'simliklar esa hayotining ikkinchi-uchinchi va undan keying yillarda, ko'pincha daraxtlar bo'lsa, o'nlab yil o'tganda keyingina gullaydi. Bu o'rinda muayyan o'simlik turining mustahkamlanib qolgan irsiy xususiyatlari asosiy factor bo'lib hisoblanadi, ammo gullash davrining boshlanishiga bundan boshqa faktorlar ham ta'sir etadi. To'ka yoki ildiz bachkilaridan yoki yetilgan daraxtlardan olingan qalamchalardan o'sib chiqqan daraxtlar urug'lardan chiqqan daraxtlardan ko'ra tezroq gullaydi, yakka o'sadigan daraxtlar daraxtzorlarda o'sadigan daraxtlarga nisbatan oldinroq gullaydi. Daraxtzorlarda daraxtlar sustroq rivojlanadi.

Ko'plab azotli o'g'it berish, zo'r berib o'sish, gullashni kechiktiradi; bukiladi. Bu holda urug'kurtak, odatda, to'ntarilib, uzun band bilan pastga osilib turadi. Urug'kurtakning tashqi qoplag'ichi shu bandga zich taqalib turadi yoki hamma unga qo'shilib ketadi. Nutsellus to'g'ri holatda qoladi. Ko'p uchraydigan shunday urug'kurtaklar teskari yoki anatrop deb ataladi. Buqiy yoki kam pilotrop urug'kurtaklar kamroq uchraydi, ularda bir tomoni ko'proq o'sganligi natijasida nutsellus bilan qoplag'ichlari egilib qoladi, natijasida chang yo'li xolatsaning yonginasiga to'g'ri keladi (chinnigullilar, olabutalar, ba'zi butgullilar va boshqalarda). Urug'kurtaklar bu tiplarining o'rtasida oraliq formalari ham bor, ular maxsus nomlar bilan ataladi.

Urug'kurtaklar gul tugunida olgan joyiga qarab/ quyidagicha bo'ladi: tugun tagida tik turuvchi urug'kurtaklar (torongullilar, olabutalar, qichitqitikanlar, murakkabgullilar va boshqalarda), tugunning yuqorisidan

pastga qarab osilib turuvchi urug'kurtaklar (soyabongullilar, behisunbullar, to'ng'iztaroq va bohqalarda), tugunning yoki devorlarida yoki markaziy burchak yoki bo'lmasa soxta- o'q urug' bandlarida joylashgan gorizontal yoki yon urug'kurtaklar. Bir tomondan, gorizontal urug'kurtaklar orasida, ikkinchi tomondan, osilib turuvchi urug'kurtaklar bilan to'g'ri turuvchi urug'kurtaklar orasida oraliq holatlar ham bo'ladi.

II. Changlanish

Ikki jinsli gullarda chang o'z gulidagi onalik og'izchasini changlatish (o'zidan changlanish) yoki shu o'simlikdagi boshqa gullarni yoki bo'lmasa boshqa o'simlikdagi gullarni changlanish mumkin (chetdan changlanish). Ko'p o'simliklarda o'zidan changlanish hodisasi, odatda, chetdan changlanish yuzaga chiqmay qolsa, gullash davrining oxiridagina sodir bo'ladi. Chetdan changlanish (ayniqsa, boshqa tur o'simlik change bilan changlanishda) ko'p o'simliklar uchun qulaydir, chunki bunday changlanishda har xil irsiy belgilari bor gametalar qo'shiladi: nasllar har xil bo'lib, turli yashash sharoitiga yaxshiroq moslasha oladi. Shuning uchun o'simliklar gullarining tuzilishi va ekologiyasida chetdan changlanish ta'minlaydigan ko'pdan-ko'p xususiyatlar borligini ko'ramiz. Chetdan changlanish yuzaga chiqishi uchun, chang joyidan ko'chishi kerek, changni anemofil o'simliklarda shamol yoki yengil havo oqimi, entomofil o'simliklarda hasharotlar, ortinofil o'simliklarda qushlar tarqatadi. Juda kamdan-kam o'simliklarda-bahor, yoz, kuzda gullaydi.

Ba'zi o'simlik turlarining gullari bir ochilganidan keyin so'liguncha yopilmaydi. Boshqa o'simliklarda esa gullar kunduzning kecha bilan almashinishi ("gul uyqusi") yoki temperetura, yorug'likning o'zgarishi munosabati bilan ham ochilib, ham yopilib turadi va hokazo. Bunga sabab shuki, ochilgan gulning qismlari bo'yicha o'sishini ham davom ettiradi va ko'p o'simliklarda tashqi sharoitga qarab, dam tashqi, dam ichki yuzasi kuchliroq o'sadi.

III . Embrion xaltachasining tuzilishi va rivojlanishi

Megaspora (embrion xaltasi)ni hosil qiluvchi arxesporiy, odatda, atigi bitta hujayraga qadar reduksiyalanadi. Arxesporiy chang yo'li ostida yotgan nutsellusning subepiderlik hujayrasidan yuzaga keladi. Ikki qoplag'ichli ko'pgina urug'kurtaklarda shu subeliderlik hujayra bitta hujayrani tashqi tomonga ajratib chiqaradi. Bu hujayra yana bo'linadi va bir qancha hujayralarni hosil qiladi, shu hujayralar arxesporiy hujayrasini nutsellusning ichkarirog'iga suradi(chang xonalarida arxesporiy hosil bo'layotgan vaqtdagidek). Bir qoplag'ichli urug'kurtaklarda, odatda, shu qoplag'ich hujayra ajralib chiqmaydi va subeliderlik hujayra arxesporiy hujayrasi bo'lib qoladi. Keyinchalik arxesporiy hujayrasi tipik hollarda ikki marta bo'linib, nutsellusning uzunasiga ketgan o'qi ustida ustma-ust yotgan to'rtta hujayraga aylanadi va xromosomalarning soni ikki marta kamayadi. Bu hujayralarning pastki (axyon-axyonda yuqorisigdagi yoki o'rtadagilaridan biri) juda kattalashib ketadi, yuqoridagi hujayralarni siqib qo'yadi va megasporaga yoki boshqacha aytganda bir yadroli embrion xaltasiga aylanadi.

Ba'zan bir qancha embrion xaltasi rivojlana boshlaydi, lekin keyinchalik ularning bittasi boshqa hammasini siqib qo'yadi.

Megaspora, xuddi ochiq urug'lardagidek ona o'simlikning urug'kurtagida unadi.Ba'zi o'simliklarda u changlanishdan keyin unadi. Embrion xaltasi unar ekan, yadrosi qarama-qarshi tomonga, ya'ni chang yo'li va uning qarshi tomoniga, ajraladigan ikkita yadroga bo'linadi. Bu yadrolar turgan joylarida keyin yana ikki marta bo'linadi, natijada embrion xaltasining har ikkila tomonida to'rttadan yadro yuzaga keladi. Har bir to'lning bittadan yadrosi (qutb yadrosi degan yadrosi) embrion xaltasining o'rtasiga qarab yo'lanadi va shu markaziy deb ataladigan yadrosini hosil qiladi. Embrion xaltasining chang yo'li yonidagi tomonida turgan uchta yadro atrofiga quyuq protoplazma to'planib, uchta yalang'och yoki yupqa oqsil (ammo,sellyuloza emas) parda bilan o'ralgan hujayra hosil bo'ladi. Bu hujayralar tuxum apparatidan tashkil

topadi. Ularning birida chang yo'lidan hammadan nari turganida, yirik yadrosi va yadrosi yonida vakuolasi bo'ladi: tuxum hujayra yoki onalik gametasi deb shuni aytiladi. Yadrosi kichikroq bo'lib, vakuolalari ikkita hujayra yordamchi hujayralar yoki sinergidalar deb ataladi. Embriion xaltasining chang yo'li qarshisidagi tomonida turgan uchta yadrolar atrofiga ham protoplazma to'planib, uchta yalang'och yoki yupqa parda bilan o'ralgan hujayra yuzaga keladi: ular antipodalar deb ataladi. Embriion xaltasining markaziy hujayrasini hosil qiladi. Shunday qilib, raso tashkil topgan embriion xaltasida (unga magaspora yoki onalik galitofinida) uning chang yo'liga qaragan tomonida tuxum hujayra bilan ikkita sinergida, qarama-qarshi tomonida uchta antipoda, o'rtada esa embriion xaltasining markaziy hujayralari bo'ladi.

Tashkil topgan embriion xaltasini, ya'ni onalik gametofitini (ungan magasporani) ochiq urug'larning , shuningdek organi bilan gomolog deyish birmuncha qiyin. Antipodlarni o'simta bilan, tuxum apparatini arxegoniy bilan gomolog desa bo'lur edi. Embriion xaltasining markaziy hujayrasida diploid yadrosi bilan birga ochiq organdir. Onalik gametofini ayrim qismlarining morfologik tabiati to'g'risida boshqa hipotezalar ham bor.

IV. Urug'lanish.

Changlanish bilan urug'lanish, ya'ni gomotalarning qo'shilishi orasida ma'lum bir vaqt o'tadi. Bu vaqt kauchukli ko'k-sag'izda atigi 15-30 minutni, g'o'zada 18-20 soatni, ba'zi o'simliklarda bir necha kun, hafta, oy va hatto yilni tashkil qiladi.

Og'izchaga tushgan chang o'sa boshlaydi. Changning intinaga o'ralgan moddasi ekzinadagi teshiklardan do'mbayib chiqadi va chang naychasini hosil qiladi, bu naycha asta-sekin cho'ziladi va ustuncha bo'lgan taqdirda kanili bo'ylab yoki ustunchadagi alohida o'tkazuvchi to'qima bo'ylab o'sib, tugunchaga qarab yo'naladi. Chang naychasi oziqlanishi va o'sishi uchun zarur moddalarni aftidan, chang zapaslaridan eams, balki ustuncha to'qimalaridan xiycha miqdorda oladi. Chang naychasining ma'lum tomonga qarab o'sishi ham ustuncha bilan urug'kurtak to'qimasidagi allaqanday moddalarning ta'siriga bog'liq. Chang qismlari ya'ni vegetative yadroli protoplazma bilan generative hujayra chang naychasining o'suvchi uchiga o'tadi, lekin ba'zi o'simliklarda vegetative yadro changda qoladi. Generativ hujayra ba'zan changing o'zidayoq, ko'pincha esa chang naychasida ikkiga bo'linadi. Ilgari shu generative qiz hujayralarning chegaralari yo'qoladi, ularning protoplazmasi vegetative hujayra protoplazmasi bilan aralashib ketadi va spermiyalar (plazmasiz spermiyalar) deb ham ataladigan ikkita generative yadrogina ro'yrost ajralib turadi deb o'ylar edilar. Spermiyalarning yolg'iz yadrolar emasligi, generative yadrolar o'z protoplazmasining yupqa qavati bilan o'ralib turishi, demak, chang naychasida plazmasiz spermiyalar emas, balki, odatda, cho'ziq ko'rinadigan spermiya hujayralar bo'lishi tasdiqlandi. Bu kuzatuvlar mohiyat e'tibori bilan kata ahamiyatga ega: ular spermiyalardan yuzaga chiqadigan urug'lanishda erkak individ tomonidan yolg'iz yadrogina emas, balki yadro bilan protoplazma ishtirok etishini isbot qiladi.

Chang naychasi protoplazmasida, uning o'sayotgan ichida asta-sekin yemirilib ketadigan vegetative yadroni, uning orqasida esa, ancha ixchamligi va cho'ziq shakli bilan ajralib turadigan ikkita spermiyani payqasa bo'ladi. Chang naychasi tugunchaga yetar ekan, undagi alohida o'tkazuvchi to'qima bo'ylab o'sadi va urug'kurtakka borib, chang yo'li orqali unga kiradi. Bu yerda u yo to'g'ri embrion xaltasiga duch keladi, yoki shu xaltani qoplab turgan yumshoq hujayralar orqali xaltaga o'tadi. Embrion xaltasining chang naychasi uchiga taqalib turgan pardasi erib ketadi. Chang naychasi embrion xaltasiga kirar ekan, sinergidalar orasida yoki bir sinergida bilan embrion xaltasining devoir orasida tuxum hujayra tomoniga qarab o'sadi. Chang naychasining uchidagi parda yirtilib, undan ikkita spermiya chiqadi, bu unga qo'shiladi. Bir qancha tekshiruvchilar spermiyalar ayni vaqtda aktiv harakat qiladi, deb yozadi.

Shunday qilib, yopiq urug'lilarning ociq urug'lilarda ko'rilmaydigan xususiyati, ya'ni qo'sh urug'lanish degan xodisa vujuga keladi. Urug'langan tuxum hujayradan embrion, embrion xaltasining markaziy hujayrasidan embrionga oziq bo'ladigan endosperm hosil bo'ladi. Sinergidalar bilan antipodalar esa halok bo'ladi, qo'sh urug'lanishni dastlab 1898-yilda mashhur rus botanigi S.G. Navashin kashf etdi. Ba'zi o'simliklarda chang naychasi urug'kurtakka chang yo'li orqali kirmay, xolatsa (xalatsogamiya) orqali yoki yon tomondan qoplag'ichlar orqali kiradi (lizogamiya gerakcha"mezos"-o'rta, "gameo"-nikohlanaman degan so'zlardan olingan). Mana shu ikkita keying usul turli oilalarda evolyutsiya protsessida birinchi usuldan (poragamiyadan) vujudga kelgan. Bir qancha ishlarda madaniy gulli o'simliklarda kuzatiladigan tanlab urug'lanish hodisasiga ahamiyat berilmoqda. Og'izchaga, odatda, urug'kurtaklardagi tuxum hujayrani urug'lantira oladigan bir talay chang tushadi. Lekin boyagi ishlardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, hatto o'sha tur yoki navning tasodifan boshqalardan oldinroq tushgan har qanday change emas, balki urug'lantirganda eng yaxshi natija

beradigan, biologik jihatdan juda mos keladigan changlarga urug'lanishda ishtirok etadi. Shu tariqa tanlab urug'lanish xususiyatidan hozirgi kunda SSSRda madaniy o'simliklarni chatishtirishda keng foydalanilmoqda. Ko'pgina madaniy o'simliklarning changlanishida ko'riladigan yana boshqa bir qancha tafsilotlar ham aniqlangan I.V. Michurin yaxshi chatishmaydigan ikki turni chatishtirishda ota tur o'simlik changiga bir oz ona tur changini qo'shadi.; bu chora egona chang bilan yaxshi changlanishga yordam berdi.

Changlanishning yaxshi chiqishi uchun changlatishda olingan chang miqdorining ham ahamiyati bor. Ba'zi o'simliklarda yakka o'sadigan changlar to'p-to'p bo'lib o'sadigan changlar hosil qilgan chang naychalaridan ko'ra sekinroq o'suvchi chang naychalarini beradi. Changlanishning yaxshi chiqishi uchun chang miqdori changlanadigan urug'kurtaklar sonidan necha baravar ortiq bo'lishi kerak. Bunday hollarda changdan chiqadigan va meva hosil bo'lishining dastlabki stadiyalarida zarur bo'ladigan allaqanday moddalar ma'lum darajada rol o'ynasa ham ajab emas.

1. Embrion, urug' endospermi va mevaning rivojlanishi.

Qo'sh urug'lanishdan keyin hammadan avval embrion xaltasidagi markaziy hujayra yadrosi bo'lina boshlaydi. Embrion xaltasi yirik, keng bo'ladigan o'simliklarda, asosan ajralgan tojbarglilar bilan bir pallalilarda, shu yadro bo'linar ekan, protoplazmaning devor yonidagi qavatidan joy olgan bir talay yadrolar yuzaga keladi. Keyin ularning orasida bir yo'la to'siqlar hosil bo'ladi (erkin sur'atda hujayralar hosil bo'lishi deb shunga aytiladi); yuzaga kelgan hujayralar yana bo'linib ko'payadi va butun embrion xaltasini to'ldiradi; natijada embrionning va unib kelayotgan yangi o'simlikning oziqlanishi uchun sarf bo'ladigan embrion xaltasidan yetilib chiqadigan ko'p hujayrali to'qima-endosperm (oqsil) paydo bo'ladi. Endospermning shu tariqa rivojlanishi tipi yadrolik yoki nuqmalar tip deyiladi.

Tor embrion xaltalarida (ba'zi o'simliklarda keng xaltalarda ham), asosan, qo'shilgan tojbarglarda endosperm takommil etar ekan, yadrolarning

bo'linishi to'siqlar yuzaga kelishi bilan birga davom etadi. Endosperm hosil bo'lishining bu tipi hujayrali yoki selyuyar tip deb ataladi. Kamdan-kam o'simliklarda (masalan, orxigullarida) endosperm mutlaqo vujudga kelmaydi.

Yangi o'simlikning oziqlanishi uchun xizmat qiluvchi yopiq urug'lilar endospermining biologik roli jihatidan ochiq urug'lilar endospermiga ma'lum darajada o'xshaydi (analog) deb hisoblasa bo'ladi, lekin uni o'sha endosperm gomologi deb aytish yaramaydi. Ochiq urug'lilar endospermi gametofit hujayralarida gaploid miqdorda xromosomalari bor maysadir. Yopiq urug'lilarda embrion xaltasi markaziy yadrosi ikkinchi spermiya bilan qo'shilganidan keyin shu xaltadagi markaziy hujayraning ikkilamchi yadrolarida yuzaga keladigan yopiq urug'lilar endospermi triploid xromosomalari bor bo'lgan tamomila o'ziga xos tuzilmadirki, bunga o'xshagan tuzilma boshqa o'simliklarda bo'lmaydi. Yopiq urug'lilar endospermi ochiq urug'lilar endospermidn farq qilish uchun ko'pincha ikkilamchi endosperm deb ataladi.

Endospermning urug'lanishdan keyin rivojlanishi biologic jihatdan ravshan; endosperm embrionning oziqlanishiga sarflanadigan bo'lganidan uning vaqtdan oldin yuzaga kelishi urug'lanish hodisasi negadir yuzaga chiqmay qolsa, plastik materialni bexuda sarflash bilan baravar bo'lar edi. Spermiyaning embrion xaltasidagi markaziy yadro bilan qo'shilishi endospermning takomil etishi uchun berilgan signaldir, endosperm takomil etishining asl urug'lanishga uncha aloqsi yo'q. Shu munosabat bilan “ qo'sh urug'lanish” degan termin asl mohiyatni to'la ifoda etolmaydigan va uncha bop kelmaydigan termindir.

Ikkinchi spermiyaning embrion xaltasidagi markaziy hujayra bilan qo'shilishi, aftidan embrionning ancha yaxshi oziqlanishini ta'min etadi, chunki endospermga ota o'simlik ham ta'sir ko'rsatadi. Urug' bir tur yoki nav doirasida yuzaga chiqadigan bo'lsa, bu o'simlikning uri va naviga oid hamma

belgilarning yaxshiroq saqlanib qolishiga yordam beradi. Jinsiy duragaylash bo'lgan taqdirda, xuddi embrion singari, endospermga ota o'simlik ta'sir etadi va niholga (maysaga) o'tadigan oziq shu nihol talablariga, masalan, ochiq urug'lilarda endospermi jinsiy duragaylashda yolg'iz ona o'simlikdan paydo bo'ladigan, embrionga uncha muvofiq kelmaydigan yopiq urug'lilarda esa ancha muvofiqroq keladi.

Urug'langan tuxum hujayra tezda parda bilan o'ralib, ko'ndalangiga ketgan to'siq bilan ikkita hujayraga: chang yo'liga qarab turadigan ustki yoki, yaxshisi bazal hujayra bilan pastki yoki, yaxshisi terminal hujayraga bo'linadi. Chang yo'liga qarab turadigan bazal hujayra ko'ndalangiga ketgan to'siqlar, ba'zi o'simliklarda esa uzunchasiga ketgan to'siqlar bilan ham bo'linib, osilma sop embrion paydo qiladigan terminal (pastki) hujayrani, oziq moddalari embrionning rivojlanishi uchun sarf bo'ladigan endosperm bilan to'luvchi embrion xaltasi bo'shlig'iga surib tushiradi. Osilma sop ichidagi embrion hosil qiluvchi terminal hujayra bir-biriga tik uchta to'siq bilan 8 ta hujayraga bo'linadi, shu hujayralarning har birida keyin tagental to'siq yuzaga keladi. Hujayralari zo'r berib bo'linganligidan kattalashib boradigan sharsimon tana paydo bo'ladi. Uning uchi tez orada yassi bo'lib qoladi: ikki pallalilarda uning ikkita qarama-qarshi uchida tobora kattalashib ikkita dastlabki barg-ikkita urug'larni hosil qiluvchi ikkita do'mboq yuzaga keladi. Urug' pallalar bilan osilma sop o'rtasida urug'pallaning pastki bandi va osilma sopga (chang yo'liga) yaqinroq joyda birlamchi ildiz hosil bo'ladi. Urug'pallalar o'rtasidagi oraliqda boshlang'ich poya yuzaga keladi: bu poya yo yalang'och bo'rtma ko'rinishida bo'ladi, yoki ko'proq o'sib, bir-biriga zich taqalgan hamda o'zini qoplab olib, kurtakcha hosil qiladigan bir qancha boshlang'ich barglarni yuzaga keltiradi.

Bir pallalilarda embrion uchida faqat bitta urug'palla hosil bo'ladi, kurtakcha esa uning yon tomonida turadi. Ko'pgina bir pallalilarda ikkinchi

urug'palla juda erta nobud bo'ladi, saqlanib qolgani esa o'sib poyaning uchiga joylashadi va uning o'sish nuqtasini yon tomonga suradi.


Ba'zi bir pallalilarda istisno tariqasida ikkita urug'palla bo'ladi.(Agapanthus Dioscorea va boshqalarda). Qator bir pallalilarda embrion rivojlanishning dastlabki davrlarida urug'palla yon tomonda (loteral), poya o'sish nuqtasi uning uchida (terminal), (telorez, Ottelia, nayzobarg va boshqalarda) joylashadi. Shunday qilib birgina urug'palla va uning terminal joylanishi ikkilamchi belgidir.

Bu bir pallalilarning ikki pallalilardan kelib chiqqanligini isbotlovchi dalilllardan biridir. Ba'zi ikki pallalilarda bir necha urug'palla: yo ikkita katta-kichik urug'palla ,yoki ikkita urug'pallaning qo'shilishidan, yo bo'lmasa bitta urug'pallaning rivojlanmay qolishidan yuzaga keladigan faqat bitta urug'palla bo'ladi.

Embriionning yuqorida ta'sir etilgan umumiy rivojlanishi tipida turli o'zgarishlar ko'p ko'riladi, shu bilan birga bu o'zgarishlar tasodifiy bo'lmay, ma'lum bir o'simlik uchun xarakterli bo'ladi.


Urug'kurtakning hammasi asta-sekin urug'ga aylanadi.Uni o'rab turadigan po'st urug'kurtak qoplag'ichlaridan, ba'zi o'simliklarda qisman nutsellusdan ham hosil bo'ladi.

Tuguncha devoir urug'laanishdan keyin ham o'sadi, shaklan o'zgarib, meva yononi hosil qiladi, tugunchada rivojlanayotgan urug'larni shu meva yoni o'rab oladi.Tuguncha boshdan oyoq mevaga aylanadi.Ko'pgina o'simliklarda gulning boshqa qismlari ham meva hosil qilishda ishtirok etadi.




1-расм

Кўп уруғли куруқ мевалар қутичалари: А-қанотли, б-мураккаб қанотли, в-дуккак, г-кўзоқ, д-кўзоқча, Е, ж, з – қутича, и-бўғинли кўзоқ



2-расм


А-б-данакли мева, 1-экзокарп, 2-мезокарп, 3-ендокарп



3-рasm

Ёнғоксимон бир уруғли курук мевалар:

А- ёнғок, б-ёнғокча, г-хакалак, д-қанотли, ёе-икки қанотли, ж-писта, з-мураккаб ёнғокча, и-пистача



4-рasm

Кўп уруғли хўл мевалар:

(резаворлар) а-узум, б-помидор, в-олма, г-лимон, д-бодринг

Xulosa

Urug'lanish jarayonidan avval urug'chi tumshuqchasiga tushgan chang una boshlaydi, ya'ni bo'rtib chang trubka (naycha)si hosil qiladi. Chang trubkasi har xil fermentlar aminokislotalar, garmonlar va vitaminlarga boy bo'lgani uchun kuchli fiziologik jarayonlar natijasida o'sib, urug'kurtakning mikropile orqali murtak xaltachasiga o'tganda chang trubkasining uchi yorilib,uning ichidagi 2 ta spermiya murtak xaltasiga to'kiladi. Bu spermiyalardan bittasi murtak xaltadagi tuxum hujayrasi, ikkinchisi esa ikkilamchi yadrosi bilan qo'shiladi.Mazkur jarayon qo'sh urug'lanish deyiladi.

Qo'sh urug'lanish jarayoni 1898-yilda rus olimi-sitalog va embriolog S.G.Navashin tomonidan aniqlangan.

Murtak xaltasining tuxum hujayrasi bilan spermiya qo'shilganda diploid zigota hosil bo'ladi.Bu zigotadan urug'ning murtagi rivojlanadi. Urug'ning murtagida: murtakning ildizchasi, poyachasi, urug'pallalari va kurtakchasi mavjud. Ikkilamchi yoki markaziy yadro bilan ikkinchi spermiya qo'shilishida endosperm hosil bo'ladi. Endosperm yirik parenxematik hujayralarga kraxmal,oqsil,moy to'planadi va ualr murtakning rivojlanishida asosiy oziq hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Jizn rasteniy tom-5(1) Moskva „ Prosveshenie” 1980. 430b,7-112b.
2. Hamdamov. I.X „Botanika asoslari” T. „Mehnat” 316b,126-150b.
3. Ikromov. M.I, Normurodov. X.N, Yo'ldoshev. A.S. „Botanika” Toshkent. „O'zbekiston nashriyoti 2002” 333b, 255-315b.
4. Kursanov. A.A va boshqalar. Botanika 1-tom., O'qituvchi nashriyoti 1972-yil” 447b, 356-413b.
5. Mustafoev. S.M. „Botanika Toshkent 2005-yil.
6. Saxobiddinov. S.S. „O'simliklar sistematikasi” 3-qism Toshkent 1966-yil. 76-116b.
7. Мустафаев С.М. Ботаника. Тошкент. «Узбекистон ».2002. 470 с.
8. Mustafayev S. M., O.A. Ahmedov Botanika, Тошкент, 2006.
9. Тўхтаев А. Ўсимликлар анатомияси ва морфологияси. Тошкент 1994й.
10. Билич Г.Л., Крыжановский В.А. Биология. Полный курс. В 3х т. Том Анатомия. М.: ОНИКС. 2005. – 864 с.
11. Андреева И.И., Родман Л.С., Чичёв А.В. Практикум по анатомии и морфологии растений. М.: «Колос». 2005. -156 с.
12. Бавтуто Г.А., Еремин В.М., Жигар М.П. Атлас по анатомии растений. Минск. «Урожай». 2001. - 245 с.
13. Рахимов А.К., Қодирова Н.З. “Анатомия ва морфология” фанидан ўқув-услубий мажмуа. Тошкент 2011й.

WEB САЙТЛАР

1. [http: www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www. pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. maik.ru](http://www.maik.ru)
4. www.edu.ru

